



Journal of Natural Science

№4
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош мухаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Кодиров Т- к.ф.д, профессор4. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор5. Султонов М-к.ф.д, доц6. Яхшиева З- к.ф.д, проф.в.б.7. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.8. Хакимов К –г.ф.н., доц.9. Азимова Д- б.ф.н.10. Мавлонов Х- б.ф.д., доц11. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.12. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)13. Мухаммедов О- г.ф.н., доц14. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)15. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц16. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чикарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**BIOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA BOTANIKANING O'QITILISHIDA
ESTETIK KOMPETENTLIKNING RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

Rabbimova Farida -p.f.f.d (PhD)

Djamalova Visola-2-kurs magistr

Jo'rayeva Lola-2-kurs magistr

Annotatsiya : ushbu maqolada biologiya o'qituvchilarida botanika fanining o'qitilishida axborot kommunikatsiyalardan foydalanish va ularning ahamiyati, foydalanish darajasi hamda afzalliklari haqidagi masalalar bilan tanishtirish.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiyalar, estetik kompetentlik, Word, Ms Excel, Ms Power Point, Flash, Movie Maker dasturlari va veb saytlar .

Аннотация: В этой статье учителя биологии знакомятся с использованием информационных коммуникаций в обучении ботанике, их важности, степени использования и пользе.

Ключевые слова: информационные коммуникации, эстетическая компетентность, Word, Ms Excel, Ms Power Point, Flash, программы и веб-сайты Movie Maker.

Annotation: In this article, biology teachers are introduced to the use of information communications in the teaching of botany and their importance, level of use and benefits.

Keywords: Information communications, aesthetic competence, Word, Ms Excel, Ms Power Point, Flash, Movie Maker programs and websites.

Antropologlarning ta'kidlashicha, go'zallik va totuvlikka ehtiyoj odamlarga xosdir. Ushbu komponentsiz dunyoning yaxlit rasmini, shuningdek, shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin emas. Qadim zamonlardan beri donishmandlar bolalarni mehr va go'zallik muhitida tarbiyalashni maslahat berishgan. Yigitlar uchun go'zallik va jismoniy rivojlanishni idrok etish ustuvor, yoshlar uchun - turli xil san'at turlarini o'rganish va ulardan zavqlanish sifatida qabul qilindi. Shunday qilib, shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati doimo tan olingan. Prezidentimiz pedagog kadrlarni tayyorlashni birinchi darajali davlat vazifasi, deb hisoblaydi: “Bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, bizning o'rnimizga kim kelishi, biz qanday kadrlarni tarbiyalashimizga to'liq bog'liqdir”. Aynan, kadrlar ko'p jihatdan jamiyatimizning, mamlakatimizning farovonligini hal etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi kadrlar, demakki, pedagog kadrlar – zamonaviy mutaxassis shaxsiga ham umumiy, ham aniq kasbiy talablar qo'ymoqda. Bu talablar ichida, ta'limning aniq insonparvar, demokratik va gumanitar yo'nalishlarida shaxsiy qadriyatli orientirlarning pedagogika fani

yordamida kuchaytirilishi bilan ta’limning yangi qadriyatlarida hal etiladigan ma’naviyat, estetik madaniyat, axloq, ekologik ma’rifat, yuksak professionalizm, chuqur ixtisoslashganlik, faol ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatni aytib o‘tish joizdir.

“Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz”, dedi davlat rahbari. U mamlakatda yangi Uyg‘onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazm, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta’kidladi. “Bizning eng ustuvor vazifamiz ulkan maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun vakolatli yoshlarni yaratish bo‘lishi kerak. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi”, dedi prezident.

Prezidentimizning biologiya va kimyo fanlariga bo‘lgan e’tiborlarini e’tirof etish joiz. Chunki davlatimizda bunday islohotlar ko‘payib bormoqda. Bunga misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarorini olish mumkin.

Respublika tuman (shahar)larida bosqichma-bosqich kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 150 ta maktablar (keyingi o‘rinlarda — ixtisoslashtirilgan maktablar)ni tashkil etish;

tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan maktablarda kimyo va biologiya fanlarini samarali o‘qitishni muvofiqlashtirish uchun ularga oliy ta’lim muassasalarining 55 ta kafedralarini birlashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida kimyo va biologiya yo‘nalishlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish, fanlarni rivojlantirish uchun ularning 74 ta kafedralariga 11 ta Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda ishlab chiqarish tarmoqlarini birlashtirish. Bu olib boriladigan ishlar albatta kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning keng dunyoqarashli, ilimli bo‘lib yetishishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi

Hozirgi davr har bir kasb egasidan tadbirkorlik, bilimdonlik va kasbiy mahoratni takomillashtirib borishni talab etadi. Bugun o‘qituvchining asosiy vazifasi faqat ta’lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan ham iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarishni talab etmoqda. Ta’limni insonparvarlashtirish va diffirinsiallashtirish juda ahamiyatli. Yangicha o‘qitish va majburan o‘qitishni tugatish lozim. Yangi zamonaviy texnologiyalardan

foydalanish, mustaqil faoliyatni tashkil etish hamda jamoa bo'lib ishlashga zamin yaratish kerak.

Biologiya tirik mavjudotlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot fani hisoblanadi. Bir o'lcham tasvirlariga ega darslik yordamida o'rganishda barcha o'rganlar qismlarini va ularning funksiyalarini tushunish qiyin. Biologiya darsliklarida tasvir va diagrammalar ko'p. Odam tanasining uch o'lchamda tasvirlangan va har bir organ faoliyati aks ettirilgan virtual taqdimotini tasavvur qiling. Bunday taqdimotlarni o'quvchilar uzoq vaqt esda saqlaydilar. Hujayraning tuzilishini darslikdan o'qib tushunish birmuncha murakkab. Ko'rgazmali tasvirlardan foydalanilsa, tasavvurlar yanada yorqin va tushunarli bo'ladi.

Hozirda avvalgidek sinf doskasida bo'r bilan yozish va ko'rgazma rasmlardan foydalanish vaqti o'tdi. O'qituvchilar yanada samarali o'qitish uchun proektorlar va AKTdan foydalanib, jonli o'quv sinflarini tashkil etishi lozim. AKTdan foydalanish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatni globalashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar yangi tushunchalar haqida rasmiy bilimlarni to'plamasdan, balki ularni tushunib olishlari juda muhim.

Biologiya fanini o'qitish yanada samarali bo'lishi uchun o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar AKTni ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag'batlantirishlari zarur. Biologiya fani o'qituvchilari dars o'qitish uchun samarali AKT yaratishlari uchun Ms Word, Ms Excel, Ms Power Point, Flash, Movie Maker kabi turli dasturiy ta'minotlardan va boshqa "Veb" vositalardan foydalanishlari mumkin. AKT o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi. AKT o'quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko'mak beradi.

Hozirgi zamonda mehnat faoliyati o'quvchilar qoniqish bilan ishlatayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlar va qurilmalar yordamida boshqariladi. AKT XXI asrning yangi ta'lim berish vositasidir. AKT o'rganish va o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. AKT o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. AKT o'z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi. AKT o'quv jarayonini oqilona boshqarish va nazorat qilish orqali vaqtni hamda mablag'ni tejaydi. AKT darslarga tayyorgarlik jarayonini qisqartiradi va o'qish jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli hamda ko'ngil ochar qiladi.

AKT moslashuvchidir. AKT turli yoshdagi o'quvchilar, turli darajada o'qituvchilar uchun moslashtirilishi mumkin hamda ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'makdir

Bularga misol tariqasida aynan pandimiya sharoitida o'qituvchilarimizning AKTdan foydalanib o'quvchilarning bilim olishlarini kechiktirmasdan amalga oshirganliklari yoki tayyorlagan turli audio yoki video hamda innovatsion darslarini olishimiz fikrimizning yaqqol isbotidir. Ya'ni masofaviy ta'limning butun respublikamiz bo'ylab rivojlanishi ham ushbu texnologiyalardan unumli foydalanish samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son [qarori](https://lex.uz/docs/-4945470)/ <https://lex.uz/docs/-4945470>
2. F.Rabbimova. O'quvchilarni tabiat estetikasini anglashga o'rgatishga bo'lg'usi biologiya o'qituvchilarini tayyorlash metodikasi.
3. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Toshkent 2004.
4. Shohista Hasanova. Biologiya darslarida axborot va innovatsion texnologiyalardan. Toshkent “yangi asr avlodi» 2012
5. Gazeta .uz
6. Lex.uz